

ABDURAUF FITRATNING IJODIY, ILMIY VA SIYOSIY FAOLIYATLARI

Mirjalol Juraqulov Sunnatillo o‘g‘li

BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada domla Abdurauf Fitratning mamlakatimiz hududida va boshqa mamlakatlardagi ilmiy hamda siyosiy jabhalarda yuritgan faoliyatlari va amalga oshirgan ishlari haqida ma’lumotlar berildi. Maqolani tayyorlash uchun ham mahalliy hamda xorijiy manbalarga murojaat qilindi.

Kalit so‘zlar: Turk, jamiyat, bosqin, qatag‘on, milliylik, madrasa, teatr, tarjimon, inqilob, vazir, harakat, jamiyat.

Аннотация: В данной статье освещаются творческий путь, научные изыскания и политическая деятельность Абдурауфа Фитрата как в пределах нашей страны, так и за её пределами. Особое внимание уделяется его вкладу в развитие общественной мысли, культуры и просвещения. Материал подготовлен на основе как отечественных, так и зарубежных источников, что позволило всесторонне осветить рассматриваемую тему.

Ключевые слова: Тюрк, общество, вторжение, репрессии, национальная идентичность, медресе, театр, переводчик, революция, министр, движение, сообщество.

Annotation: In this article, information is provided about creative, scientific and political activities done by Abdurauf Fitrat in our and other countries, as well as his accomplishments. For preparing the article, both local and foreign sources were used.

Keywords: Turk, society, invasion, repression, nationality, madrasa, theatre, translator, revolution, minister, movement, society.

KIRISH

Tarixdan yaxshigina ma’lumki XIX asrning oxiri hamda XX asrning boshlarida Turkiylarning o‘chog‘i [1,2] bo‘lgan Turkistondagi siyosiy va ijtimoiy holat turli xil voqealarga boy bo‘lgan. Xususan, bu davrlar Turkiston turklarining o‘zaro kelishmovchiliklari, birinchi jahon urushi muammolari, “Yosh Buxoroliklar” kabi bir qator jamiyat a’zolarining qatl qilinishi, Chor Rassiyasining bosqini, Turkistondagi inqiloblarning yuzaga kelishi, hamda ziyoli qatlamning qatag‘on qilinishi kabi bir qator qonli voqealarga to‘la bo‘lgan desak adashmagan bo‘lamiz.

Yuqorida sanab o‘tilgani kabi u davrlar tahlikali va odamlar o‘z jonlarini saqlashni o‘ylaydigan bir zamon hisoblangan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan bu davrda fan va ma’daniyat sohasiga oid bo‘lgan bir qator jamiyat va tashkilotlar o‘z faoliyatlarini olib borgan. “Jamiyat-i Tarbiya-i Atfol”, “Yosh Buxoroliklar”, harakati,

“Yosh Buxoroliklar Inqilob Partiyasi”, “Yosh Buxoroliklar Birligi” dasturi hamda “Chig‘atoy Gurungi” jamiyati kabi ko‘plab birlik va jamiyatlar vatanparvar, milliylik tarafdorlari bo‘lgan jadidlar tarafidan tashkil qilingan. Jadidlar harakatining ilg‘or yetakchilaridan biri domla Abdurauf Fitratdir.

ASOSIY QISM

O‘zbekistonning birinchi akademigi, Prof.Dr. jadidlar harakatining yetakchilaridan biri, shoir, nosir, dramaturg, musiqashunos, olim hamda davlat arbobi domla Abdurauf Abdurahmon o‘g‘li Fitrat o‘z faoliyatini ijodiy, ilmiy hamda siyosiy maydonlarda olib borgan.

Ustoz Abdurauf Fitrat mamlakatimiz bo‘ylab hozirgi Buxoro, Samarqand, Toshkent hamda Namangan va Farg‘ona viloyatlarida ilmiy va siyosiy faoliyatlarini olib borgan. Shu bilan bir qatorda ushbu faoliyatlarni amaldagi Turkiya hamda Rossiya mamlakatlarida ham davom ettirgan.

Domla ona shahri Buxoroda Mir Arab madrasasini bitirgandan so‘ng, o‘z davrining jadidlari yordami bilan 1909-yili Turkiyaning Istanbul shahridagi Istanbul Universitetiga o‘qishga yuboriladi. *“Buxoroda yangi boshlang‘on jadidlar harakatiga qarshilik ham qildim. So‘ngralari jadidlar harakatiga oralandim. U zamondagi zehniyatning ta’siri va eski jadidlarning tashviqi va yordami bilan Turkiyaga tahsil uchun bordim”*[2,245], deya domla o‘z xotiralarida eslab o‘tadi. Keyinchalik 1913-yili Istanbul Universitetining Adabiyot Fakultetini bitiradi[3,42]. Turkiyada ta’lim olgan yillarida Fitratning dunyo qarashi, siyosiy hamda adabiy fikrlari o‘zgaradi.

Ushbu o‘zgarishlarning natijasi Fitrat Buxoroga qaytganidan so‘ng boshlagan teatrchilik faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Hamda “Yosh Buxoroliklar”ning jamiyatiga bevosita qo‘shilgan domla Fitrat Buxoro, Samarqand kabi shaharlarda jadid maktablarini ochishga muvaffaq bo‘ladi.

1917-yilgi “Fevral inqilobidan” so‘ngra “Yosh Buxoroliklar inqilobi partiyasi” quriladi[4,8] hamda Fitrat bosh kotiblik vazifasini bajaradi.

Jadidlar, Turkistonga yordam berish sharti bilan Sovetlar bilan kelishadi. Va Buxoro Amirligiga qarshi muvafaqqiyatsiz to‘ntarishni amalga oshiradilar. Natijada minglab “Yosh Buxoroliklar” qatl qilinadi. Fitrat esa, Toshkentga qochishga majbur bo‘ladi[4,9].

Turkiston xalqlarining madaniyati, san’ati, adabiyoti, tarixi, til va imlosi kabi masalalarni hal qilish maqsadida, 1919-yili Fitrat domla yetakchiligida Toshkentda “Chig‘atoy Gurungi” nomli jamiyat tuziladi.

Abdurauf Fitrat 1919-1920-yillarda Afg‘onistonning Toshkentdagi Elchixonasida tarjimonlik vazifasini bajaradi[5,22].

1920- yili Buxorodagi inqilobdan so‘ng Fayzulla Xo‘jayev boshchiligida Buxoro Xalq Jumhuriyati tuziladi. Hamda Fitrat domla ushbu Jumhuriyatda 1921-23-yillar oralig‘ida Xalq tashqi ishlar noziri, Xalq iqtisodi oliy sho‘rosi raisi hamda Xalq

maorif noziri kabi bir qator yuqori doiradagi lavozimlarda o‘z siyosiy faoliyatini olib boradi.

1923-yilning 12-iyun sanasida SSSR KP Markaziy Komiteti kotibi Y.E. Rudtzutak, Buxoro Xalq Jumhuriyati Maorif Nozirliqi tafidan sotsializmga o‘tish uchun yetarlicha harakat qilmayotganligi va sotsialistik san’at yuqori darajada tashviq etmaganligi uchun domla Abdurauf Fitratni vazifasidan ozod qiladi[5,22].

1923-24- yillarda Moskvadagi Moskva Universiteti Sharq Tillari Institutida va Sank Pterburg Universitetida turkiy, arabiy va forsiy tillarda darslar beradi.

1925-yilda esa, domla Fitrat Namangan va Farg‘ona bo‘ylab ilmiy safar chog‘ida “Qutadg‘u bilig” asarining Namangan nusxasini topishga muvaffaq bo‘ladi va bu manbani fanga ma’lum qiladi.

XULOSA

Domla Abdurauf Fitratning ijodiy va siyosiy faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, sohasining eng yetuk mutaxasisi ya’ni adabiyotshunosi bo‘lishi bilan bir qatorda siyosiy maydonda ham o‘z faoliyatini olib borganligiga guvoh bo‘ldik. Avvalombor, butun turkiy xalqlarning bayroqdori va yetakchisi sifatida ham ilm isnoni hamda siyosat rahnamosi o‘laroq ko‘plab manfaatli ishlarni amalga oshirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Nergis Biray, Sema Eynel. Abdurauf Fitrat.kardeş kalemler Ayrılık Avrasiya Edebiyat Dergisi,2025.

2.Abdurauf Fitrat. Chin sevis. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1996.

3. Vahit Celal. Abdurauf Fitrat hayati ve ilmî faaliyetleri.Çeşm-i Cihan: Tarih Kültür ve Sanat Araştırmaları E - Dergisi,2018.

4. Yusuf Avcı.Fıtratın Hayatı va ilk Özbekçedeki dil bilgisi... Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi 22.Sayı.

5.Seyfettin Erşahin. Fıtrat'ın Türkistan için II. Meşrutiyet Mahrecli Tecdid Teklifi Üzerine. bilig.Güz/2008